

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 316.7+316.346.32+159.923.2

OMMAVIY MADANIYAT VA YOSHLAR: MADANIY QADRIYATLARGA TAHDID YOKI IMKONIYAT**МАССОВАЯ КУЛЬТУРА И МОЛОДЕЖЬ: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ ДЛЯ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ****MASS CULTURE AND YOUTH: THREAT OR OPPORTUNITY FOR CULTURAL VALUES**

Maxtumova Ulbo'lsin Botir qizi 
Farg'ona davlat universiteti magistiri

Annotatsiya

Ushbu maqolada ommaviy madaniyatning mohiyati, shakllanishi va jamiyatdagi o'rnini haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Maqolada ommaviy madaniyatning turli shakllari, musiqa, kino, televideniye, internet va reklama kabi ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng tarqalishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlari haqida fikr yuritiladi. Umuman olganda, maqola ommaviy madaniyatning jamiyat va yoshlar hayotidagi ko'p qirrali o'rnini va uning salbiy hamda ijobiy jihatlarini o'rganadi.

Аннотация

В статье дается подробная информация о сущности, формировании и роли массовой культуры в обществе. В статье анализируются различные формы массовой культуры, их широкое распространение через средства массовой коммуникации, такие как музыка, кино, телевидение, Интернет, реклама. В статье также обсуждается негативное влияние массовой культуры. В целом в статье рассматривается многогранная роль массовой культуры в обществе и жизни молодежи, ее негативные и позитивные аспекты.

Abstract

This article provides detailed information about the essence, formation and role of mass culture in society. The article analyzes various forms of mass culture, its widespread distribution through mass communication media such as music, cinema, television, the Internet and advertising. It also discusses the negative effects of mass culture. In general, the article examines the multifaceted role of mass culture in society and the lives of young people, as well as its negative and positive aspects.

Kalit so'zlar: ommaviy madaniyat, ta'lim, ma'rifat, yuksak ma'naviyat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, globallashuv, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet.

Ключевые слова: культура, образование, просвещение, высокая духовность, интернет, социальные сети, глобализация, национальные ценности, идеология.

Key words: mass culture, education, enlightenment, high spirituality, internet, social networks, globalization, national values, ideological immunity.

KIRISH

Ommaviy madaniyat milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lib, u madaniy xilma-xillikni hushlamaydi, uning asl maqsadi - bu olamni bir xil rangda ko'rishdir. Garchi ommaviy madaniyat okean ortida yagona davlat shakllanishida qo'l kelgan bo'lsa-da, bugunga kelib uning G'arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzul ekani ham ayonlashadi.

So'ngi bir necha o'n yilliklar davomida ommaviy madaniyat o'sha jamiyatlarni sun'iy, soxta g'oyalar bilan chalg'itibgina qolmay odamzot uchun muqaddas bo'lgan tabiiy juftlikni ham inkor etdi, g'ayrinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi. Va buni demokratiyaning oliy namunasi deya ko'z-ko'z qildi. Ommaviy madaniyatning shiddat bilan rivojlanishida tijorat qoidalariga ham kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Har qanday zamon va makonda barcha narsalardan foyda ko'rishga tayyor dastyorlar topilishi uzoqni ko'zlab zimdan ish ko'ruvchi ommaviy madaniyatchilarning mushkulini oson qiladi, ishini jadallashtiradi. Bunday mol-dunyoga sig'inuvchi dastyorlar faqat bugunni, yana ham aniqrog'i hozirni ko'radi va tan oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi tufayli "ommaviy madaniyat" keng tarqalmoqda. Endilikda odamlarning ayrim guruhlarini an'anaviy madaniyatni axloq-odobini, urf

odatlarini tan olmay qo'ydi. Shu kungacha ommaviy madaniyat deganda o'zida axloqsizliklarni saqlagan behayolliklarni tushunardik. Endilikda ommaviy madaniyat qirralari iqtisodiyot, siyosat va mafkurada ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev globallashuv sharoitida ma'naviyatga qarshi turli hurujlar haqida gapirar ekan: "Bugungi kunda yon atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya "ommaviy madaniyat" degan turli-balo qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi", deb alohida ta'kidlaydi [1]. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik zo'ravonlik individualizm egotsentrizm g'oyalarni tarqatish kerak bo'lsa uning orqasidan boyliklar ortirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlar turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qopqorishga qaratilgan tahdidlar odamni tashvishga solmay qolmaydi. Amerikalik faylasuf va yozuvchi Duayt Makdonald o'zining "Ommaviy madaniyat nazariyasi" maqolasida bu haqida shunday yozadi. "Ommaviy kommunikatsiya" tizimi orqali ommaviy madaniyat jamiyat a'zolarining mutlaq ko'pchiligiga amal qiladi, inson dunyosining barcha ko'rinishlarida ma'lum turmush tarzi va kiyim uslubdan tortib turning ma'lum cheklavlarigacha mafkuraviy tamoyillarga rioya qilishdan yaqinlar o'rtasidagi maxsus munosabatlarga o'z qoidalarini o'rnatdi deya fikr yuritgan [2. 397-403]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'naviy tarbiya to'g'risida shunday degan edilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustun, ya'ni bozor tamoyillarga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy meros, milliy va ummuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga asoslanamiz" [3]. Ma'naviy axloqiy tarbiya strategik masala. Toki ma'naviyat insonga yo'lbo'shchilik qilmasa uni egib olish, og'dirib olish juda oson kechadi. Hammamizga ayonki, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari bashariyat uchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Terrorizm, ekstremizm, kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotik kabi tahdidlar ortib bormoqda [4.8]. Shu jumladan, Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning ham "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarlarida "ommaviy madaniyat" ning zararli xatarlardan ogohlantirib, shunday deydilar: "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha asl ma'naviy qadriyatlarimizni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti va oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab bormoqda",- deb ta'kidlaydilar [5. 286].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, yoshlar, o'smirlar, talabalar yangilikka intiluvchan tengqurlarga havasmand, modaparast, xorij standartlarni oson qabul qilishga ruju qo'ygan bo'ladi. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik holat kirib kelayotgan shubha qadriyatlarga tanqidiy yondashuvlarni cheklab qo'yimoqda. Maqbul yoki nomaqbulgi haqida muayyan fikr-mulohazasi bo'lmagan yoshlar milliy mentalitetimizga mos kelmaydigan mafkuraviy mahsulotlarni matbuot orqali qabul qilishga oshiqmoqda. "Ommaviy madaniyat" tashqi ko'rinishi va oson o'zlashtirilishi bilan ularni o'ziga jalb qilmoqda [6. 41-42]. Turfa g'oya va ramzlar zamonaviy moddalar ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr mulohaza yuritishni talab qilmaydi, har xil hayot tashvishlardan xalos etadi, ruhni dam oldirish, ularni o'qishga, bilim olishga emas, o'ynab-quvna yashab olishga undaydi. Aslida "ommaviy madaniyat" ning uni tarqatayotganlarning ham asl maqsadlari shulardan iborat. Mamlakatimizning qariyb 60 foizni yoshlar tashkil etishini va "ommaviy madaniyat" mualiflari aynan shu auditoriyani nazarda tutayotganni e'tiborga olsak, vazifalarimiz ma'suliyati aniq namoyon bo'ladi. Ommaviy madaniyat inqilobiy xususiyatga va dinamiklikka ega bo'lib sinflar, an'analalar va didlar o'rtasida har qanday to'siqlarni buzadi, u barcha madaniyatlarga xususiyatlarni eritib yuboradi, o'z yo'lida barcha narsalarni aralashitirib yuboradi. Shu bilan birga barcha qadriyatlarni yo'q qilishi ham mavjud. Madaniyatda gemoginizatsiya ya'ni madaniy bir xillik va undan keyingi madaniy "kolonizatsiya" shunday sodir bo'ladi [7. 200-204]. "Ommaviy madaniyat" g'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni g'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda "pop-kultura" ya'ni "ommaviy madaniyat" deb atashadi. Garchi madaniyat deb atalsada aslida tub mazmun- ma'nosiga maqsad-niyatga ko'ra chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxassislar faylasuf, sotsiolog olimlarning fikrcha hali ham

FALSAFA

fanda “anikultura” (g'ayrimadaniyat") shakllanmaganligi uchun “Pop (ommaviy) madaniyat” aslida madaniyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. “Ommaviy madaniyat” shu boisdan eng avvalo yuksak iste'dod va ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga san'atga uning boyliklariga qarshi tish tirnog'i bilan bilan kurashib uni inkor etib kelyapti. G'arb dunyosidagi faylasuflar sotsiolog olimlar bizga “To'qqizinchi simfoniya” Betxoven kerak emas yoki “Mona Liza”ni loyga qorishtiramiz kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar ommaviy madaniyat tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizni tashkil etadi, deb yozadilar [8. 158-160].

XULOSA

Biz bugun yuritimizda yangi hayot barpo etarkanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz zarur. “Ommaviy madaniyat” tahdidi bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan tobora kuchayib borayotgan manaviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etadi. Shu bois, yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida uning shavqatsiz o'yinlari to'g'risida bir yoqlama soxta tasavvurlar bo'lmasligi lozim. Unutmasligimiz kerakki, ogohlik va hushyorlik, mafkuraviy yetuklik va ma'naviyatlilik davrimizning talabidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ziyolilar vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 04 .08. 2017.
2. Ibragimov S. Globallashuv jarayonida “Ommaviy madaniyat” ning yoshlar tarbiyasiga tahdidi // Oriental renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. - № 2 (11). – Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Jumayeva Sh. Axborot xavfsizligi va mafkuraviy himoya. // Educational resarch in Universal Sciences. - № 6 (24). – Toshkent, 2023.
6. Manzarov Y, Jumayeva Sh. Talaba yoshlar mustaqilligi ma'naviyatining ijtimoiy dinamikasi. Aspirantlar va doktrantlarning ilmiy nashrlari jurnali, 2016.
7. Жумаева Ш. Семья воспитание личности в творчестве Алишера Навои. Традиционнке культуры народов мира семья семейные ценности а системе общественных отношений НИИ БелГУ, 2024.
8. Жумаева Ш. Исламизация кавказа и влияние на политическую жизнь общества. South Caucasus in the context of modern global challenges. Baku, 2024.